

MINTAQAVIY ALOQALARNING SHAKLLARI VA XUSUSIYATLARINI INTEGRATSIYALASHUV JARAYONIDA NAMOYON BO'LISHI

Ataqulov Q.I.

Toshkent Kimyo Texnologiyalari Instituti

ataqulovqahramon@gmail.com +998977022750

Annotatsiya. Ushbu maqolada "integratsiy" tushunchasi va uning ahamiyati, turli sohalardagi hamkorlik shakllari, xususiyatlari, ko'lami va darajasining mintaqaviy integratsiya jarayonlariga ta'siri atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek global va mintaqaviy integratsiya jarayonlarini mamlakat iqtisodiyoti, xalq farovonligi va ijtimoiy hayot darajasini ko'tarilishiga ta'siri tahlil qilingan. Integratsiya jarayoni hamkorlikda juda muhim hisoblanib, mintaqaviy integratsiya va global integratsiya rivojlanayotgan mintaqalar mamlakatlarga turlicha ta'sir qiladi. Maqolaning maqsadi mintaqaviy integratsiya, hamkorlik shakllari, xususiyatlari va darajalari mazmun-mohiyati va o'zaro aloqalarini ochib berish.

Kalit so'zlar: "Integratsiya", mintaqaviy integratsiya, mintaqaviy hamkorlik, hamkorlik shakllari, hamkorlik darajalari, Yevropa Ittifoqi, Markaziy Osiyo, Zamonaviy texnologiyalar.

KIRISH

Globalashgan dunyoda insoniyat cheksiz taraqqiyotni boshidan kechirmoqda. Uzoq tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak odamlar faqat qishloq xo'jaligi bilan shug'ullangan, qishloq xo'jaligi uchun juda qulay hisoblangan joylarda sivilizatsiya vujudga kelgan. Keyingi davrlarda ilm-fanning rivojlanishiga ham ayni shu sivilizatsiya markazlari (Misr, Hindiston, Yunoniston va b.) yuksak hissa qo'shib kelgan bo'lsa, o'rta asrlarda rivojlanish, taraqqiyot ko'proq mamlakatni markazlashtira olgan va ilm-fanga e'tibor berilgan mamlakatlarda rivojlanganligini kuzatish mumkin. Insoniyatning bugungi taraqqiyotga erishish jarayoni bosqichlari yaqin bir ikki asr ichida sodir bo'la boshladi.

Temir yo'llar va bug' mashinasining yaratilishi, Elektr va yig'uv liniyalari, markaziy kompyuter tarmoqlari va internet tarmoqlari va boshqalarning taraqqiyoti mintaqaviy hamkorlik munosabatlarini kengaytirdi va mintaqaviy hamda mintaqalararo munosabatlarda yanada yangi bosqichlarga ko'tarildi. Bugungi kunda taraqqiyotga erishmagan mintaqalarda rivojlanishning turli shakllari va xususiyatlarini shakllantirish ahamiyati ortib bormoqda. Shu ma'noda mintaqada aloqalarni rivojlantirishda Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev quyidagicha takidlab

o‘tadi: “Biz tashqi siyosatni amalga oshirishda barcha davlatlar, birinchi navbatda, qo‘shni mamlakatlar bilan do‘stona munosabatlar va o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlashni o‘zimizni birinchi darajali vazifamiz deb bilaman”¹¹.

ASOSIY QISIM

Takidlash joizki xalqaro, davlatlararo va mintaqaviy hamkorlik munosabatlarida davlatning o‘rni birinchi o‘rinda e‘tirof etiladi. Zamonning Globallashuvi sharoitida kuchli rivojlangan davlatlar va endigina rivojlanayotgan davlatlar ajralib bormoqda. Tabiiyki rivojlangan davlatlar o‘z manfaatlari va xalqaro mavqeyidan kelib chiqib yaqinda rivojlanish bosqichiga kirgan mamlakatlardan imkonqadar foydalanishga harakat qilmoqdalar. Rivojlanayotgan mamlakatlar ham o‘zining taraqqiyot yo‘llarini belgilab, milliy va mintaqaviy birlashmalarga uyushish orqali dunyoda o‘z o‘rniga ega bo‘lish uchun bor kuch imkoniyatlarini ishga solmoqdalar. Kuzatadigan bo‘lsak, bir paytlar qaysidir davlatning mustamlakasi bo‘lgan hududlar va mintaqalarda vujudga kelgan davlatlar hozirda rivojlanish bosqichida borayapti.

Vaholanki bu hududlar rivojlanishda va taraqqiyotda o‘zib ketmasligi uchun o‘zlarining “katta og‘alari” tomonidan bo‘lib tashlangan. Sobiq mustamlakalarga Hozirgi davrda ham ta’siri sezilarli bo‘layotganligini ko‘rish mumkin. Zero, hududiy jihatdan nisbatan mayda bo‘laklarga bo‘linmagan Xitoy va Hindiston rivojlanish bosqichini tezda bosib o‘tib taraqqiyotda rivojlangan davlatlarni ortda qoldirishga ulgurishdi. Mayda bo‘laklarga bo‘lingan ayrim mintaqalar mamlakatlari Markaziy Osiyo, Kavkaz, Yaqin Sharq, janubiy sharqiy Osiyo mamlakatlari, Afrika, Janubiy Amerika kabi mintaqalar uchun rivojlanishni tezroq bosib o‘tish uchun mintaqaviy-iqtisodiy uyushgan tashkilotlarga birlashish manfaatliroq va bunga majbur.

Mavzudan kelib chiqadigan bo‘lsak, avvalo mintaqaviy hamkorlikda “Integratsiya” tushunchasiga ta’rif bersak. “Integratsiya” (lot. *integratio* — *tiklash, to‘ldirish, integer* — *butun so‘zidan*)¹² - bu suveren davlatlar o‘rtasida tovarlar, xizmatlar, moliya, investitsiya, ishchi kuchi erkin harakatlanadigan iqtisodiy kenglikni tashkil qilish maqsadida birlashish jarayoni ekanligini bildiradi. Integratsiya tushunchasini sohalariga qarab “siyosiy integratsiya”, “iqtisodiy integratsiya”, “ijtimoiy integratsiya” kabi shakllari bor. Integratsiya jarayoni

¹¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг асарлари ва марузalarидан олинган фикрлар. Миллий тикланишдан миллий юксалиш сари. “Yoshlar nashriyoti uyi” -T.: 2019 й 66-б

¹² <https://uz.wikipedia.org/wiki/Integratsiya>

mintaqaviy yoki global integratsiy bo‘lishi mumkin. Integratsiya bugungi kunda iqtisodiyotda kuzatlisa, sanoat ishlab chiqarish mahsulotlari, tovarlari, xizmatlari va jarayonlari rivojlanishi past bo‘lgan o‘lkalarga kirib borsa, arzon ishchi kuchi yuqori baholansa bu albatda davlatni jamiyatni rivojlanishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda ijtimoiy va madaniy global integratsiyalashuv holatlari ham kuzatilmogdaki bu jarayon millatning yoki bir xalqning milliy qadriyatlariga putur yetkazishga va milliy ananalarini yo‘qolib borishiga, shu bilan birga “yasama anana” va ommoviy madaniyatni keng yoyilishiga ham imkoniyat yaratmoqda.

Shu o‘rinda “mintaqaviy integratsiya” tushunchasini tahlil qilish o‘rinlidir. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha “mintaqaviy integratsiya” umumiy manfaatlar ustuvorligini taminlash maqsadida davlatlar o‘zlari yaratayotgan institutsional strukturaga o‘z **suverenitet**¹³larini bir qismini berish deb qaraydilar¹⁴. Yevropa ittifoqi misolida pul birligining umumiyliigi, chegaralarning ochiqliigi kabi holatlarni inobatga oladigan bo‘lsak, qisman suverenitetning berilishiga o‘xshash holat kuzatilishi mumkin. Ammo manfaatlar uyg‘unliigi, iqtisodiyotning umumiyliigi, fuqarolar farovonliigi, umumiy xavfsizlik borasidagi kelishuvlar hududi kichkina va aholi soni kamayib borayotgan Yevropa Ittifoqi davlatlarida suverenitetni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Boshqa tadqiqotchilarning fikrlaricha esa “mintaqaviy integratsiya” milliy suverenitetga dahl qilmaydi. Rossiyalik olim T.V.Bardachyov fikricha “Yevropa Ittifoqiga kiruvchi davlatlar siyosiy va iqtisodiy sohalarda istisosiz suverenitet huquqini saqlab qolgan. Milliy mudofa, tashqi energetika sohasidagi aloqalar, adliya va ichki ishlar migratsiya siyosati va ta’lim milliy hukumat qo‘lida”¹⁵ deb takidlaydi. Bu ichki tuzulmaviy organlar ustidan davlatning nazorat qilishini va shu orqali milliy suverenitetni namoyon qiladi.

Yevropa Ittifoqi bozor munosabatlarini, erkin savdoni, iqtisodiyotni erkinlashtirish kuchli iqtisodiy rivojlanishga olib keldi. Bu iqtisodiy rivojlanish uchun ma’lum darajada siyosiy erkinliklar berildi va siyosiy erkinlik vaqti kelganda umumiy iqtisodiyotni (turizm rivoji va imigrantlar oqimi) rivojlanishiga ham sabab bo‘layotganligini kuzatish mumkin. Umuman olganda fikrimcha bu davlat suverenitetning yo‘qolishi emas, davlat rahbarlarining ayrim siyosiy vakolatlarini

¹³ **Suverenitet** (fransuzcha: *souverainete* — oliy hokimiyat) — hokimiyatning ustunliigi va mustaqilligi. Suverenitetni hurmatlash — xalqaro huquq va xalqaro munosabatlarning asosiy prinsipi. U BMT Ustavi va boshqa xalqaro hujjatlarda mustahkamlab qo‘yilgan. Konstitutsiyaviy huquq fanida davlat suvereniteti, millat suvereniteti, xalq suvereniteti tushunchalari ishlatiladi. Davlat suvereniteti — hokimiyatning mamlakat ichida oliyliigi va tashqi munosabatlarda to‘la mustakilligi.

¹⁴ Muhammadsidqov M.M. Xalqaro mintaqashunoslik. o‘quv qo‘llanma. -T.: «Barkamol fayz media», 2017, 110 bet.

¹⁵ www.globalaffairs.ru/numbers/24/7045.html

mintaqaviy tashkilotlar zimmasiga yuklatilishi va mintaqaviy tashkilot orqali uyushmaga a'zo mamlakatlarning umummintaqqa manfaatlari yuzasidan mas'uliyatini oshirilishida namoyon bo'ladi. Yaqin Sharq yoki Osiyo mamlakatlarning deyarli barchasida Xitoy andozasida qurilgan avtoritar boshqaruv tizimi siyosiy elitaning kuchsizlanishini inobatga olib bunday vakolatlarni o'zidan soqit qilish tarafdori emas. Shu bilan birga mintaqalarda hamma davlatlar o'zi rivojlanishni va yaqindagina qaramlikdan qutilib yana qaysidir mamlakatga siyosiy qaram bo'lishni xohlamaganligi uchun mintaqada o'zi siyosiy lider bo'lish tarafdori.

Shuning uchun har kim o'zi iqtisodiy qudratga ega deb hisoblagan "lider" davlat bilan hamkorlik qilishda davom etmoqdalar. Bu holatlar umumiy bozor, erkin savdo iqtisodiy munosabatlar borasidagi hamkorlikka to'siq bo'lib turibdi. Chegaralar ochilishi borasida esa qator qarama qarshiliklar vujudga keladi. Chegaralar daxlsizligi borasidagi ishonchsizlik, markazlashgan sanoat hududining yo'qligi, iqtisodiy salohiyatning keskin farq qilishi, mintaqqa eksporti ko'p jihatdan tabiiy resurslarga bog'langanligi kabi holatlar iqtisodiy, siyosiy taqiqlarni keltirib chiqaradi.

Mintaqaviy hamkorlik va aloqalarning birqancha shakllari va darajalari bor. Professor M.Muhammadsiddiqovning fikricha "mintaqaga uning asosiy belgilaridan kelib chiqib yondashish ko'proq qo'llaniladi"¹⁶. Tadqiqotchilar tomonidan eng kuchli taraqqiy etgan va rivojlanishda yetakchi hisoblangan davlatlar ishtrokida tuzilgan Yevropa ittifoqi misol qilib olinadi va shu ittifoq erishgan natijalar misol qilib keltiriladi, boshqa mintaqalarni rivojlantirish tendensiyalari shu birlashma bosib o'tgan yo'l misolida ko'rib chiqiladi. Zero kelajakda huddi Yevropa Ittifoqi kabi rivojlangan hududga aylanishi uchun. Ammo, aynan shu uyushma kabi rivojlanishiga boshqa mintaqalarni birqancha o'ziga xosliklari ajratib turadi.

Yuqorida takidlaganimizdek tezlik bilan rivolanishda davom etayotgan mamlakatlar har tomonlama o'zaro hamkorlik aloqalarni yo'lga qo'yishga harakat qiladilar. Mintaqaviy jarayonlarda ijobiy natijalari ko'proq bo'lishini hisobga olib hamkorlik shakllari va xususiyatlari haqida fikr yuritsak. Professor M.Muhammadsiddiqovning takidlashicha hamkorlik turli shakllarda namoyon bo'ladi:

- Sohasiga ko'ra siyosiy, iqtisodiy, harbiy, madaniy;
- Ishtirokchilariga ko'ra ikki tomonlama, ko'p tomonlama;
- Ko'lamiga ko'ra davlatlararo, mintaqaviy, global;
- Darajasiga ko'ra faol, sust hamkorlik¹⁷.

¹⁶ <https://science.jdpu.uz/index.php/science/article/download/512/290>

¹⁷ <https://science.jdpu.uz/index.php/science/article/download/512/290>

Yuqorida "Integratsiya" atamasiga ta'rif keltirilganidek tushunadigan bo'lsak, "siyosiy integratsiy" siyosiy jihatdan mavjud bo'lgan xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan suveren davlatlarning siyosiy, savdo-iqtisodiy, xavfsizlik, transchegaraviy muommolarni hal qilish borasidagi tuzilgan uyushma yoki ittifoq. "Siyosiy integratsiyada" davlatlar mintaqaviy muomolar va iqtisodiy rivojlanish masalalarini hal qilishda har tomonlama imkoniyat yaratib berish masuliyatini zimmlariga oladilar.

"Iqtisodiy integratsiya" – turli korxonalar va tarmoqlarning, shuningdek, mamlakatlarning ishlab chiqarish sohasida bir-biriga yaqinlashuvi, ular o'rtasida uzviy iqtisodiy aloqalar o'rnatilishi, mamlakatlararo yagona umumiy xo'jalikning shakllanishi jarayoni¹⁸. Iqtisodiy Integratsiya jarayoni mintaqalar va mikro hududlar doirasida iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish, iqtisodiyotda sanoatning rolini va ta'sirini oshirishda juda muhim.

Iqtisodiy integratsiya ma'lum hududdagi mamlakatlar milliy xo'jaliklari darajasida hamda, korxonalar, firmalar, kompaniyalar, korporatsiyalar darajasida ham kuzatilishi mumkin. Har qanday mintaqada iqtisodiy rivojlanish va taraqqiyot eng muhim hisoblanadi. Shuning uchun bozor iqtisodiyoti yo'ldan borayotgan mamlakatlarda iqtisodiy integratsiya eng muhimi sanaladi. Qolgan barcha ko'rinishdagi yaqinlashuv va integratsiya jarayonlari avvalo iqtisodiy munosabatlarni yaxshilashga xizmat qilishi kerak.

Harbiy sohadagi integratsiya mintaqaviy hamkorlikni xavfsizligini taminlash, tahdid solishi mumkin bo'lgan turli geosiyosiy muommolarni hal qilishda o'rni katta, ammo degani harbiy ittifoqlar tuzish maqsadga muvofiq degani emas. Qo'shilmaslik harakatiga a'zo bo'lgan mamlakatlar harbiy bloklarga a'zo bo'lish, harbiy ittifoqlar tuzish bilan bo'g'liq bo'lgan kelishuvlarni qoralaydilar. Bu jarayon ko'p jihatdan iqtisodiy farovonlik, iqtisodiy taraqqiyotga ham qattiq zarar yetkazadi.

Madaniy integratsiya tushunchasini tahlil qiladigan bo'lsak, yuqorida aytilgandek global madaniy yaqinlashuv milliy mentalitet va qadriyatlarga ziyon yetkazishi mumkin, ammo mintaqaviy integratsiya uzoq tarixiy taraqqiyot va madaniy uyg'unlik jarayonida millatlarning yaqinlashuvini qardosh xalqlarning urfodat ananalarini rivojlanishini umumqadriyatlar uyg'unligini rivojlanishini taminlaydi.

Hamkorlik ishtirokchilari ham ma'lum taraqqiyot natijalariga erishish va ma'lum bir sohani rivojlantirish uchun ikki davlat tomonidan yoki bir nechta davlat tomonidan amalga oshirgan hamkorlik aloqalari nazarda tutiladi. Ikki davlat

¹⁸ https://uz.wikipedia.org/wiki/Iqtisodiy_integratsiya

oʻrtasidagi hamkorlikka misol tariqasida Rossiya va Xitoy davlatlarining iqtisodiy munosabatlardagi oʻzaro hamkorlikni keltirsak birqancha sohalarni taraqqiyotiga rivojlanish salmogʻining oshirilishiga xizmat qilmoqda. Ikki tomonlama munosabatlarga faqat iqtisodiy jihatdan qudratli davlatlar emas, balki bir mintaqa doirasida joylashgan kichik davlatlar ham kirishadigan boʻlsa yaxshi natijalar koʻrsatadi.

Tabiiy resurslarning oʻxshashligi (Yaqin Sharq va Markaziy Osiyoda Qozogʻiston va Turkmaniston), savdo yoʻllarining umumiyliigi, iqlimga mos ishlab chiqarish mahsulotlarining uygʻunligi (Janubiy Amerika qahva, Eron va unga qoʻshni mamlakatlar sitrus mevalari, Oʻzbekiston, Qozagʻiston va Turkmaniston paxta) kabi holatlar bunga katta yoʻl ochadi. Bu imkoniyatlardan foydalanib hamkorlik yoʻlga qoʻyilsa mahsulotning tannarxi oshishiga va mahsulot yetishtirishda yangi texnologiyalarni joriy qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mintaqaviy hamkorlik koʻp tomonlama, ammo kichikroq miqyosda koʻp foyda keltiradi¹⁹.

Koʻp tomonlama hamkorlik misolida OPEC²⁰ tashkilotini misol qilsak dunyoda asosan Yaqin Sharq mintaqasida yirik miqdorda neft mahsulotlarini eksport qiluvchi mamlakatlar uyushmasi hisoblanadi. Tashkilot asosan dunyoda neft mahsulotlarining narxi va qiymati, bozorlar, yetkazilib berilishini nazorat qilishda hamkorlikni tashkil qilgan.

Hamkorlik koʻlamiga koʻra davlatlarni hamkorlik darajasini baholaydigan boʻlsak, davlatlararo, mintaqaviy va global miqyosda kechadi. Davlatlararo hamkorlikda davlat yoki korxonalar, korporatsiya tashkilotning davlat ichida yoki qoʻshni davlatlar bilan cheklanmay bir yoʻnalishdagi birqancha mamlakatlar bilan oʻzaro va keng qamrovli hamkorlikni yoʻlga qoʻyilishi nazarda tutiladi. Davlat ichidagi bir muommoni hal qilish yoki bir sohani rivojlantirish uchun bir emas, bir qancha davlatlardan investor va sarmoyadorlarni jalb qilishda namoyon boʻladi.

Mintaqaviy hamkorlikda maʼlum geografik hududda joylashgan davlatlarning umumiy manfaatlar uchun birgalikda turli sohalarda hamkorlik aloqalariga kirishish nazarda tutiladi. Hamkorlikning koʻlami unchalik katta boʻlmasada maʼlum maqsadlarni amalga oshirish muhim hisoblanadi. Bunda asosan hamkorlikdan erishiladigan natijada teng manfaatdorlik yoʻlga qoʻyiladi.

Global hamkorlikda mintaqaviy hamkorlikdan farqli, mintaqaviy manfaat emas balki, individual manfaat ustunlik qiladi. Bu jarayon manfaatdorlik teng taqsimlanmasdan davlatlarning rivojlanganlik darajasiga va tabiiy resurslar

¹⁹ https://www.unescap.org/sites/default/files/ch2_0.pdf

²⁰ <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

zahiralari, ishlab chiqarish texnologiyalarining xilma-xilligi modernizatsiyalashganligi bilan o'lgangan holda taqsimlanishi mumkin. Shuning uchun ham rivojlanish darajasi o'zi bilan bir xil bo'lgan mamlakatlarga raqobatchi ham bo'lishi hamda kuchli rivojlangan mamlakatlar bilan hamkorlik qilishga intilishi mumkin, asosiy maqsad tez rivojlanish va qo'shnilaridan o'zib ketish.

Shu o'rinda hamkorlik darajasiga ko'ra faol va sust bo'lib, bir qancha omillar bunga ta'sir qilishi mumkin. Intelektual salohiyatning yuqoriligi; Davlatning hududi yoki joylashgan o'rni; aholi sonining o'sish darajasi; urbanizatsiya darajasi; sanoat texnologiyalari bilan jihozlanganlik darajasi; iqtisodiyotni erkinlik darajasi; tabiiy resurslarning ko'pligi va boshqa ko'pgina jihatlar hamkorlikni sust yoki faol darajada kechishiga yordam beradi.

Davlatlararo hamkorlikning faol rivojlanishda avvalo intellektual salohiyatning yuqoriligi darajasini keltirishimning sababi, rivojlangan mamlakatlarning deyarli barchasi aqliy salohiyati yuqori bo'lgan, intellektual yutuqlar darajasi yuqori bo'lgan, yuqori malaka va ko'nikmaga ega bo'lgan mamlakatlar turganligi sir emas. Buning uchun birqancha ta'lim, sog'liqni saqlash, korrupsiyaga qarshi kurash va boshqa sohalarni rivojlantirish muhim hisoblanadi. Yana jamiyatda kelajakka ishonchsizlik kayfiyatini yo'qotish, milliy ruh va vatanparvarlik hissini chuqur singdirish juda muhim (Yaponiya misolida). Mintaqaviy hamkorlik va hamjihatlikni saqlash va rivojlantirishda taraqqiyot darajasi juda muhim.

Geografik jihatdan hamkorlikning faol rivojlanishda davlatning joylashgan o'rining muhimligi shundaki, qaysiki mamlakat dengiz bo'yida yoki davlatlararo munosabatlarda tranzit hudud bo'lsa iqtisodiy rivojlanish tezroq amalga oshiriladi.

Markaziy Osiyo mintaqasi ayni shunday hudud bo'lganligi bilan hamkorlik uchun qulay va shuning uchun ham so'ngi vaqtlarda rivojlangan mamlakatlar qiziqishiga sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga geografik qulaylik aholi turmush darajasining ko'tarilishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Misol tariqasida sahroda joylashgan Afrika va Yaqin Sharq mamlakatlari bir sohaga neft yoki konchilik sohasiga ixtisoslashgan dunyoda turli darajadagi iqtisodiy inqirozlar "neft inqirozi", "oziq-ovqat inqirozi" bunday mamlakatlarga jiddiy ta'sir ko'rsatadi va xalqaro valyutalarga qaramligini ham oshiradi (bunday holat Markaziy Osiyo mamlakatlarida ham bor). Bunday holatlar teng huquqli hamkorlik emas, rivojlangan mamlakatlar ta'siriga tushib qolish, mintaqada rangli inqiliblar, etnik birliklar o'rtasida mojarolar, ochlik, ijtimoiy parokandalikni keltirib chiqarish mumkin.

TAKLIFLAR

Mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishda o‘zaro mintaqaviy integratsiyon jarayonlarni kuchaytirish, bir sohaga ixtisoslashmasdan eng zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanishda mintaqaviy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va izchilligini taminlashni taklif qilaman.

Mintaqaviy hamkorlikni o‘ziga xos iqlimi, davlatlar tuzumi, iqtisodiy salohiyati, menteliteti, aholining ijtimoiy turmush tarzi kabi holatlarni inobatga olgan holda yaxlit doiraviy tizim ishlab chiqishni taklif qilaman.

XULOSA qiladigan bo‘lsam, integratsiya mintaqaviy munosabatlarni rivojlantirishga shu bilan birga mintaqaxalqlarini madaniyati, manaviyatini, maqsadlarini umumlashtirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy jihatdan mintaqaviy integratsiya mintaqada iqtisodiy qudratini oshirish, ijtimoiy hayotni rivojlantirish, aholi turmush darajasini ko‘tarishda muhim ro‘l o‘ynaydi.

Siyosiy va harbiy sohalardagi mintaqaviy hamkorlik davlatlararo institutsional shakllanishni tezlashtirishda, tinchlik, bag‘rikenglik, chegaraviy dahlsizlik va xavfsizlikni taminlashda juda muhim hisoblanadi.

Mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishda har bir davlat tashqi iqtisodiy ta’sirlardan emas, ichki imkoniyatlar va sharoitlardan kelib chiqilishi muhim hisoblanadi.

Umuman olganda siyosiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo‘lgan mintaqalar anchagina bularni ichida Yevropa Ittifoqi chinakam markazlashgan institutsional shaklga kela olgan mintaqahisoblanadi. Boshqa mintaqalar esa o‘ziga xos jihatlari bilan rivojlangan davlatlarni o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Umid qilamizki boshqa mintaqahududlari ham o‘z manfaatidan ko‘ra umummintaqah manfaatlarini ustun qo‘ya oladigan rejalarni amalga oshirsa rivojlanish va taraqqiyot darajasi Yevropa Ittifoqidan ham kuchli rivojlanishga qodirdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг асарлари ва марузalarидан олинган фикирлар. Миллий тикланишдан миллий юккалиш сари. "Yoshlar nashriyoti uyi" -Т.: 2019 й 66-б
2. Muhammadsidiqov M.M. Xalqaro mintaqashunoslik. o‘quv qo‘llanma. -Т.: «Barkamol fayz media», 2017, 8, 30 bet.
3. Сергунин А.А. Проблемы и возможности регионалистики // Полис.1994. №5 -С. 149-150

4. Sirojov O.O. Mazirov M.M. Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligining istiqbollari va imkoniyatlari. –T.: O`zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2021. B-9.
5. К Касымова Н.А. Региональная интеграция: аспекты теории. // Халқаро муносабатлар, №3, 2005, 5-13 с.
6. Muhammadsidiqov M.M. Xalqaro mintaqashunoslik. o`quv qo`llanma. -T.: «Barkamol fayz media», 2017, 8, 30 bet.
7. Kacovicz A. Regionalization, Globalization and Nationalism // Alternatives. 1999.04. P. 529.
8. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Integratsiya>
9. www.globalaffairs.ru/numbers/24/7045.html
10. <https://science.jdpu.uz/index.php/science/article/download/512/290>
11. https://uz.wikipedia.org/wiki/Iqtisodiy_integratsiya
12. https://www.unescap.org/sites/default/files/ch2_0.pdf
13. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

"Innovations in Science and Technologies"